



*Sarvinoz RASULOVA,*  
*ToshDO'TAU dotsenti v.b., PhD*  
*Ahad RASULOV,*  
*Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani sudyasi*  
*E-mail: sarvina\_ok@mail.ru*

*ToshDO'TAU professori, filol.f.d. B.Karimov taqrizi asosida*

### THE THEME OF FAMILY IS HIGHLIGHTED IN THE WORK "HUMAN PROPERTY"

Annotation

This article analyzes the thoughts expressed in the treatise "Humanity" by the beloved writer, People's Writer of Uzbekistan, Hero of Uzbekistan Tahir Malik on topics such as family, parents, child rearing, divorces. The reasons for the increase in the number of divorces today and the fact that innocent children remain orphans are studied. All thoughts are substantiated with the help of the books "Family Code" and "Humanity".

**Key words:** Family, treatise, society, environment, material, guidance, disgrace, love and affection, hatred, divorce, widow, orphan.

### ТЕМА СЕМЬИ ОСВЕЩАЕТСЯ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «ЧЕЛОВЕЧЕСКАЯ СОБСТВЕННОСТЬ»

Аннотация

В данной статье анализируются мысли, высказанные в трактате «Человечество» любимого писателя, народного писателя Узбекистана, Героя Узбекистана Тахира Малика, на такие темы, как семья, родители, воспитание детей, разводы. Изучаются причины увеличения числа разводов в наши дни и того, что невинные дети остаются сиротами. Все мысли обосновываются с помощью книг «Семейный кодекс» и «Человечество».

**Ключевые слова:** Семья, трактат, общество, среда, материальный, руководство, позор, любовь и привязанность, ненависть, развод, вдова, сирота.

### "ODAMIYLIK MULKI" ASARIDA OILA MAVZUSINING YORITILISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada barchamiz uchun sevomli adib, O'zbekiston Xalq yozuvchisi, O'zbekiston Qahramoni Tohir Malikning "Odamiylik mulki" risolasida oila, ota-ona, farzand tarbiyasi, ajrimlar kabi mavzularda bildirilgan fikrlar tahlil etilgan. Bugungi kunda ajrimlar sonining oshib ketishi, begunoh bolalarning tirik yetim bo'lib qolish sabablari o'rganilgan. Barcha fikrlar "Oila" kodeksi, "Odamiylik mulki" kitoblari yordamida dalillangan.

**Kalit so'zlar:** Oila, risola, jamiyat, muhit, modda, hidoyat, razolat, sevgi-muhabbat, nafrat, ajrim, beva, yetim.

**Kirish.** O'zbek adabiyoti taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan ijodkorlardan biri Tohir Malikdir. U nasr yo'nalishida, xususan, qissa janrida faol ijod qilgan. Shu kungacha uning bir qator nasriy asarlari nashr etildi. "Falak" qissasi yozuvchini iqtidorli fantast yozuvchi sifatida xalqimizga tanitgan edi. Mustaqillik yillarida yozilgan "Shaytanat" (5 kitobdan iborat) asari esa adibga chinakam shuhrat keltirdi, yozuvchi iqtidorining nechog'li baquvvat va ko'lamlil, jozibador, keng ekanidan yana bir karra dalolat berdi. Bu asar yuz minglab nusxada qayta-qayta chop etilgani va hamon sevib o'qilayotgani shundan dalolat berib turibdi. Yozuvchining "Zaharli g'ubor", "Somon yo'li elchilari", "Chorrahada qolgan odamlar", "Qaldirg'och", "Alvido, bolalik", "So'nggi o'q", "Charxpalak", "Murdalar gapirmaydilar", "Talvasa" kabi asarlari ham kitobxonlar qalbiga kirib, undan joy olishga ulgurdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bizga ma'lumki, o'tmishda yozuvchilarimizning aksari badiiy asarlar yozish bilan bir qatorda axloqqa doir risolalar ham bitganlar. Agar ziyalik bilan kuzatsak, o'tmish adabiyotimizning asosini odob masalalari band etgan. "Adabiyot" – "odoblarni to'plami" ma'nosini anglatishi ham shundandir. Badiiy asar qaysi tarzda, qaysi yo'nalishda yozilmasin, odamlarni tarbiya qilishga xizmat qilishi lozim. Tarixda bunday kitoblarning hisobi yo'q. Ana shunday kitoblarda berilgan hikmatlar bilan kitobxonlarni tanishtirish

maqsadida Tohir Malik bir qancha axloqiy risolalar yaratdi. "Mehmon tuyg'ular", "Imonlashish umidi", "Jinoyatning uzun yo'li" shu yo'nalishda yozilgan asarlardir.

2012-yil "Sharq" nashriyotida yozuvchining odob-axloq mavzusiga bag'ishlangan yana bir ma'rifiy risolasi "Odamiylik mulki" nashr etildi. Uch fasladan iborat ushbu risolada insonlarning ma'rifat olamini boyitishga xizmat qiluvchi ma'lumotlar, suhbatlar o'rin egallagan. Ushbu risolaning yozilishi haqida Tohir Malikning o'zi shunday deydi: "Tarixda odob haqida kitoblar juda ko'p. Shularning ayrimlarini o'qish jarayonida kaminada undagi hikmatlar bilan birodarlarni tanishtirish mayli uyg'ondi. Rahmatli tog'am, ulug' adib Mirzakalon Ismoiliy axloq masalalariga doir bir qancha risolalar yozgan edilar. Shulardan biri – "Qizlar daftariga"ni yozgach, muxlislardan ko'plab maktublar oldilar va uning davomi sifatida "Bunisi sizlarga, yigitlar" degan axloq kitobini yozishni niyat qilgan edilar. Ammo bu niyat amalga oshmay armon bo'lib qoldi. Shu nom ostida bir kitob yozmoqlikni ko'p o'yladim. Hamkasblarim orasida ham bu ishga jalb etganlar bo'ldi. Uzoq yillar davomida tayyorgarlik ko'rgan bo'lsam-da, yozishni boshlashga jur'at eta olmadim. Vaqti-soati yetibdi, shekilli axloq mavzuiga doir to'plagan ma'lumotlarimni qarasam, yetmishdan ziyot daftarga jo bo'libdi. Allohga tavakkal qilib ishni boshladim". Ko'rib turganingizdek, yozuvchi bu risolani yozishni anchadan beri

ko'ngliga tugib qo'yan. Mana endi yillar o'tib ana shu kitobni yozib, kitobxonlar hukmiga havola qildi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Oila va nikoh mavzusi bugungu kunda dolzarb masalalardan sanaladi. Chunki ayni vaqtda ajrimlar soni ortib bormoqda. Oila – muqaddas dargoh. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi “Oila, bolalar va yoshlar” deb nomlanib, unda oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidir; Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi; Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi; Ota-onalar va ularning o'rmini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburlar; Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag'batlantiradi; Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar; Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir; Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi (76-77-78-modd) degan qat'iy meyorlar belgilangan [1].

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksida ham Oila to'g'risidagi qonunchilik hamda ularning vazifalari, Oilaviy munosabatlarda ayol va erkakning teng huquqliligi, Oilaning, onalik, otalik va bolalikning muhofaza qilinishi, Nikoh tuzish tartibi, Nikoh yoshi, Er-xotin huquq va majburiyatlarining vujudga kelishi va hokozalar to'g'risida bob va moddalar mavjud [2]. Yurtimizda oilaning mustahkamligi va barqarorligi, ajrimlar sonini kamaytirish, bolalarning yetim bo'lishining oldini olish maqsadida ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmogda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolani yozishda analiz va sintez, qiyosiy-tipologik, statistik metodlardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Biz tahlil qilmoqchi bo'lgan masala Tohir Malikning “Odamiylik mulki” asarida ham batafsil yoritilgan [3]. Chunonchi, mazkur risolaning birinchi fasli “Ishq fasli” deb nomlanadi. Bu faslda yozuvchi bir qancha mazularda fikr yuritadi. Masalan, “Guliston ista, ey ko'ngil” deb nomlangan bobi muqaddima o'rnidagi dastlabki suhbat bo'lib, unda mazkur kitobga tartib berish sabablari, maqsadlari bayoni, “YO saodat – yo falokat” inson ro'parasida turgan ikki yo'l – hidoyat va zalolat yo'llari hamda tarbiya mezoni xususida, “Sevgan suyganiga etar itoat” bobi esa ishq-muhabbat ta'rifi, uning xillari, qalbdagi jilosi bayoni xususidadir. Bundan tashqari, “Hurmati volidayn – farz ayn”, “Bemehr qarindoshdan mehr bilgan yot yaxshi”, “Jamiyatning durru gavhari”, “Eng yaxshi do'st” nomli boblarida ota-ona va farzand munosabatlari, tarbiya, mehr, oila, rashk, do'st kabi axloqiy tushunchalar haqida so'z yuritiladi. Xususan, yozuvchi tarbiya asoslari haqida so'zlab quyidagi fikrlarni keltiradi: “Fazilatni qo'riqlaydigan go'zal axloqni va yaramas yo'ldan, yomon ahvolga tushishdan saqlaydigan hushyorlikni donolar tarbiyaning muhim asoslaridan hisoblaganlar. Yana: va'daga – vafo, nasibaga – rizo, har bir baxtsizlikka qarshi chidamli bo'lish, haqiqat va to'g'rilikka rioya qilish...

Insonni inson bo'lishiga bois tarbiyadir va uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste'dodga, ilmga va mashqqa”. Shu o'rinda ushbu fikrlarni bayon qila turib adib Hazrat Navoiydan ikki bayt keltiradi:

“Qobilg'a tarbiyat erur ul nav'kim, guhar,  
Tushsa najosat ichra yugay kimsa oni pok.  
Gar it uzumiga kishi may birla bersa suv,  
Bu tarbiyat bila qila olg'aymu oni tok [5].

(Qobiliyatli kishiga berilgan tarbiya gavhar kabi qimmatlidir. Gavhar najosatga tushsa ham yuvilsa – tozalanadi, qimmatini yo'qotmaydi. Ituzum may bilan sug'orilsa ham ituzumligicha qoladi, hech zamon tokka aylanmaydi). To'g'ri, bosh qancha aql va ilmga to'lib tohsa ham axloqni sira unutmash kerak. Inson o'zidagi ma'naviy jihatlarni, vijdon va nafsni tarbiyalashi, ehtirosini boshqara olishi, xunuk odatlarni tark etishi, ilmiy yutuqlarini insoniyat foydasiga yo'naltirishi lozim. Bo'lmasa u to'g'ri yo'ldan ozishi mumkin.

Risolaning “Baxt fasli” deb atalgan bobida baxtiyorlik, ibodat, ilm, jaholat, aql, oqil, dono, nodon, til, nafs, sabr-toqat haqida so'z yuritiladi. Inson baxtiyor bo'lish uchun yaralgan. Kishi dunyoda boy bo'lish uchun emas, balki baxtli bo'lish uchun yashaydi. Zotan, qush parvoz uchun, inson esa baxtiyor bo'lish uchun yaralgandir. Yozuvchi ushbu faslda til xususida ham o'z fikrlarini bayon qiladi. Barchamizga ma'lumki, daraxtni kessalar uning ildizidan bir shoxcha ko'karib, uning o'rmini bosadi. Tanadagi qilich va o'q yarasi ham bitib ketadi. Ammo til yarasi hech qachon tuzalmaydi, ya'ni qalbg'a sanchilgan so'z o'qini chiqarib bo'lmaydi. Badan zahardan, qalb yomon so'zdan o'ladi. Chunki so'z qilichi temir shamshirdan ham o'tkirroqdir. Vujud yaxshi taom bilan jonlanganidek, qalb ham yaxshi so'zlardan orom oladi. Nina qo'lni sanchib azoblaganidek, qattiq so'z ham ko'ngillarni sanchib, yaralaydi. Ammo nina sanchig'i bitib ketar, dil yarasi bitmaydi. Qattiq so'zning dilni yaramasligi uchun o'sha so'zni aytadigan labingni yopiq tut, ya'ni ko'ngilni buzg'uvchi so'zlar uchmasidan oldin labingni tikib tashla, – deb yozadi Tohir Malik. Zero, yomg'ir tomchilari yerni jonlantirgani kabi komil insonlarning so'zlari ko'ngillarni jonlantiradi.

Mazkur risolaning uchunchi bobi “Saodat fasli” deb nomlanadi. Ushbu faslda xulq, vijdon, vafo, chin so'z, tuhmat, salomlashish odobi, kamtarlik, g'azab va hilm, mardlik va oliyanoblik, halol va harom, tavba, shukrona kabi mavzularda so'z yuritiladi. Yozuvchi yillar davomida odob-axloqqa doir to'plagan fikrlari, materiallarini ana shu risolaga jo qilgan.

“Odamiylik mulki” risolasida ko'plab ibratli Allohga xush keluvchi yaxshi odoblar haqidagi oyatlar, hadisi sharifdan namunalar, rivoyatlar, mulohazalar keltiriladi. Mashhur yozuvchi, olim, shoirlarning asarlaridan parchalar beriladi.. Masalan, “Tilingni avayla, omondir boshing” nomli bobda til haqida quyidagi hikoya keltiriladi: “Podshoh to'rt olimni chorlab debdi-ki:

– Har biringiz bittadan shunday hikmat aytingizki, u tarbiyaning asosi bo'lsin.

Birinchi aytibdi:

– Donishmand odamlarga yarashadigan narsa – so'zlamaslikdir!

Ikkinchi debdi:

– Dunyoda eng foydali narsa shuki, inson o'z aqli bilan maslahatlashmasdan so'z boshlamasin.

Uchinchisi:

– Inson uchun eng xayrli narsa – o'ylamasdan so'zlamaslikdir.

To'rtinchisi aytibdi:

– Inson uchun eng tinchi shuki, u o'zini tole ixtiyoriga topshirsin”. To'g'ri, so'zlar – o'zlikning ifodasidir. Katta daraxtlar kichik urug'larda yashiringani singari insonning asl qiyofasi, ko'rinishi uning so'zlariga yashiringan bo'ladi.

Tohir Malik mazkur risolada oilaning muqaddasligi, uni asrab-avaylash lozimligini ta'kidlab, ajrimlar va ularning sabab hamda oqibatlarini xususida ham o'z fikrlarini bildiradi.

Xususan, ajrimlarning sababini oilalar, ota-ona munosabatlaridan izlaydi. Va quyidagi sabablarni keltiradi:

1. Farzandsizlik;
2. Qaynona yoki qaynotalarning aralashuvi;
3. Moddiy qiyinchiliklar;
4. Turli xarakterlar to'qnashuvi;
5. Yengil-yelpi hayotga intilish;
6. Internet tarmoqlari (Instagram, Facebook, Telegram, Odnoklassnik va hokazo);
7. Giyohvand moddalar iste'moli;
8. Tazyiq va zo'rvonlik.

Yuqoridagi sabablarning ichida eng keng tarqalgani qaynona yoki qaynotalarning aralashuvi, ya'ni oilaviy munosabatlarga uchinchi shaxsning aralashuvidir. Aksariyat oilalardagi janjallarning sababi shu. Yozuvchi risolada qaynona va qaynotalarga nasihat qiladi.

Bugungi kunda sudga ajrim uchun ariza topshirayotgan er-xotinning tanlagan qarori ularning o'ziga ham, jamiyatga ham, oiladagi farzandining taqdiriga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Aslida oilaviy ajrimlar masalasi bugun yoki kechani muammosi emas. Xo'sh, oilaviy ajrimlarning asosiy sababi nimada?

Mazkur savolga Oila va xotin-qizlar qo'mitasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari Zarifa Iskandarova quyidagicha javob beradi:

– Bu borada doimiy tahlillar olib boriladi. Joriy yil 10 oyi davomida yangi rasmiylashtirilgan nikohlar soni 202 ming

568 ta bo'lib, shundan 211 tasi yaqin qarindoshlar o'rtasida qayd etilgan. O'tgan oylar davomida 42 mingga yaqin oilaviy ajrim qayd etilgan. Bu ko'rsatkich 2022-yilning shu davriga nisbatan 3 foizga ortgan. Bilasizmi, o'rganishlardan xulosa sifatida aytib o'tish lozimki, ajrimlar, asosan, 30 yoshgacha bo'lgan er-xotinlar oilasida sodir bo'lmoqda [4].

Mutaxassisning so'zlariga ko'ra, nikohlanuvchilarning aksariyati oila qurishga tayyor emas. Shu borada mavjud muammolarning oldini olish maqsadida barcha shahar va tumanlarda Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlari faoliyati takomillashtirildi. 10 oy davomida 67 ming 237 nafar nikohlanuvchi shaxslar ushbu markazlarda o'qitildi.

Darhaqiqat, ajrimlar faqat ota-ona yoki farzandlarga emas, jamiyatga ham ta'sir qiladi. Shunday ekan, ajrimlar sonini kamaytirish, janjalli oilalar bilan shug'ullanish, ularga maslahatlar berish har birimizning fuqarolik vazifamiz bo'lmog'i lozim.

**Xulosa va takliflar.** Tohir Malikning "Odamiylik mulki" asari axloq risolasi bo'lib, u insonlarni faqat ezgu ishlar, ezgu amallar qilishga chorlaydi va dunyodagi jamiki yaxshi va yomon fazilatlar, illatlar haqida kitobxonlar bilan dildan fikrlashadi. Ularni o'z-o'zlarini tarbiyalashga da'vat etadi. Shunday ekan, mazkur kitob ma'rifat olamimizni yanada boyitishga xizmat qiladi, degan umiddamiz. Tohir Malik tomonidan qalamga olingan va ushbu kitobga kiritilgan fikrlar o'zining ibratliligi, keng ko'lamni qamrab olishi va ma'nomohiyati bilan o'quvchilar xotirasida muhrlanishi shubhasiz.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. Axmatqulova D. Tohir Malikning "Odamiylik mulki" asarida insoniylik va axloqiy qadriyatlar talqini // Modern science and research, 2025. Vol. 04. Issue 02.
4. Toshqorayeva M. Oilaviy ajrimlarning sabablari // O'z A. – Toshkent, 2025.
5. Tohir Malik. Odamiylik mulki. – Toshkent: Sharq, 2012.